

This is not registered version of TotalDocConverter!

Ushbu maʼlumot ham chiqishib ketishi qiyin ediki, buning uchun u ezilardi.

Yoshligi ham mana koʼz ochib yumgunicha oʼtib ketdi. Endi faqatgina xotira qoldi. Xotiraki, juda sodda va oddiy edi.

Ertalab turardi. Choyini ichar- ichmas turib mol-hollariga yem berardi. Tagini kurardi. Soʼng mакtabiga borardi. Toʼrt-besh xil fandan taʼlim olardi. Yana sumkasini qoʼltiqlab uyga kelardi. Choy-poy ichib, sal dam olgach, eshakni egarlardi. Xurjunning koʼzlariga non-suv, oʼroqni joylab, egarga tashlardi. Soʼng eshakni minib dashtga joʼnardi.

Qiziltoshda eshakni toʼxtatib qantaradi. Egar abzalini olib qoʼyadi. Qoʼliga oʼroqni olib bir-ikki soat oʼt oʼrardi. Oʼtni ikki bogʼlam qilib eshakka ortib uyga kelardi.

Keyin har faslga qarab har xil, kurash, chillak, tupalak, oshiq oʼynalardi.

U eshakni minsada, undan qoʼrqardi. Negaki, bir marta eshak minayotganida, jonivor uning oyogʼidan tishlab oldi. Shu-shu boʼldiyu, u eshakni minayotgan paytida ogʼziga yemxaltasini solardi.

Uni ne-ne umidlar bilan voyaga yetkizgan odamlar yana-da baxti bekamlik istashardi. Lekin hammasi ham ular xohlaganidek boʼlmadi. Oriyat uchun talashdi. Gavharni toshga urmaylik, deyishdi.

Sabogdosh qizlardan biri uni yaxshi koʼrib qoldi. Qiz avval boshda yigitni unchalik mensimasdi. Azbaroyi rahmi kelganidan, gohida uni erkalar, gohida kalaka qilar, xullas tushuniksiz bir muhabbat edi. Qizi tushmagur shaddod edi.

Bir kuni u ijador kampirning zugʼumidan zada boʼlib, xiyobondagi xarrakda oʼtirgan chogʼi oʼsha qiz yoniga keldi.

Gaplashdilar. Qiz unga qiziqsindi. Uning aytarga tili bormadi. Oxiri shaddod qiz masalani bilib oldi. Ikkalasi u turadigan ijara uyga keldi. Hamma narsalarni yigʼishtirib mashinada qizning uyiga kelishdi.

Hovlining burchagidagi doʼltaxonaga uni koʼch-koʼroni bilan joylashtirishdi. U sodir boʼlayotgan voqealardan shoshib qoldi. Qiz uni onasi bilan tanishtirdi.

U sabogʼini oʼqib oʼtirgan chogʼida doʼltaxonasining derazasi taqilladi. Tuynukni ochsa, koʼrdiki, qiz uni tashqariga imlab chaqirib turardi. Chiqdi. Qiz uni ergashtirib ayvonga opkeldi. Xontaxta atrofiga koʼrpacha solingen, unga oʼtirishni taklif qildi. Yigit iymanibgina oʼtirdi. Bir payt uydan baquvvat, yagʼrindor, qoruvli kishi chiqib keldi. U oʼrnidan turib koʼrishdi. Qiz esa dasturxonaga non-choy keltirdi. Soʼng onasi katta laganda osh keltirdi. Bu orada qiz otasiga yigitni tanishtirdi...

Ular tinch-totuv yashay boshlashdi. Oʼqishni tamomlashiga bir yil qolganida ularning toʼyi boʼldi. Toʼy. Tomosha. Tantana.

Orada ikkita farzandli ham boʼlishdi.

Kelin kuyovni pul topishga va boshqa turli shinamliklarga undaydi. Javradi. Qaynonasi ham unga aql boʼldi. Qaynota esa kuyovni unchalik yoqtirmas va shu vajdan uni mensimasdi ham. Va buning ustiga u bu uyda ichkuyov hisobida edi.

Bu roʼzgʼordagi diydiyo kuyovning joniga tegdi. Xotini yana eski ashulasini ayta boshlagan paytda kuyov jahl bilan tarsaki tortdi. Orada janjal boshlandi. Kuyovning eshitmagan qargʼishi va soʼkishi qolmaydi...

Oqibatda uni qamatishdi...

Unga ertaga javob beradigan kun. Ozodlikka chiqadi. Boshida esa ming xil tashvish.

Qayoqqa boradi?..

Bolalarining oldigami?

Ota-onasining oldigami?

Yoki doʼstlarining qoshigami?

Umuman unga hozir kimning koʼzi uchib turibdi? Hozir unga "mahrami asror" boʼladigan yoki boʼla oladigan odam bormikan oʼzi?

U ozodlikka chiqdi. Biroq uni hech kim intizor boʼlib kutib turgani yoʼq edi. Kech tushishi bilan bir paytlar qishloqdochlari yashaydigan umumyotoqxonaga kelib qoʼndi. Xayriyatki, tanishlari bor ekan. Bir xonada oʼtirib, osh qilishib, tongotar gurunglashishdi.

Hafta, oʼn kun shu taxlit kun kechirdi. Orada oʼgʼli bilan qizini ham koʼrib keldi. Maktabga boryapti ekan. Avvaliga begonasirab turdi. Qoʼllariga shirinlik tutqazdi. Yuzlarini, sochlarini siladi. Bagʼriga bosdi. Boʼgʼziga yigʼi tiqildi. Koʼnglida nedir taft iliqlikni toʼydi. Endi u haftaning soʼngi kunlari bolalarini koʼrish uchun maktabga kelardi. Bolalar ham unga oʼrganib qolishdi. Keyinroq maʼlum boʼlishicha, xotini ham boshqa erga tegib ketibdi...

Hamqishloqlarining saʼyi harakatlari bilan u zavodga ishga kirdi. Kunlari shu zaylda oʼta boshladi. Ishxonasidagi bir qariqizga uylandi... Qariqiz faqirgina, odmi ekan. Vaqt oʼtib qizli boʼlishdi.

U bir safar qizi va xotini bilan bolalarini koʼrgani maktabga kelishdi...

Xotini, oʼzi bolalarini quchoqlab, bagʼriga bosishdi. Bolalari esa kichkina singlisini koʼrib qiziqsindi. Uning burnidan tortiqilashdi.

Qoʼlchalarini silashdi. Chaqaloqni erkalashardi.

Xotini ham ular bilan esh boʼlib ketdi.

Oʼzi esa ularni jimgina kuzatib turardi. Oradan qancha voqealar oʼtdi. Ne-ne siru sinoatlar qoldi. Yana hali oldinda ne taqdir kutayotgan ekan..

Sukunat sohili jimgina mudrardi...